



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2026

SOVET DAVRI ILMIIY MUHITIDA TARIX FANINING SIYOSIYLASHUVI VA IDEOLOGIK TRANSFORMATSIYASI

Diyorbek Maqsudovich Narimonov

Katta o‘qituvchi

“Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ORCID: 0009-0003-7727-3496

E-mail: diyorbekmaqsudovich93@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada sovet davri ilmiy muhitida tarix fanining siyosiylashuvi, marksistik-lenincha mafkuraning tarixshunoslikka ta’siri hamda tarixiy bilimlarning ideologik transformatsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarix fanining sovet hokimiyati manfaatlariga bo‘ysundirilishi, ilmiy obyektivlikning cheklanishi va tarixiy voqealarning mafkuraviy talqini yoritiladi. Tadqiqotda sovet tarixshunosligining metodologik asoslari, partiyaviylik prinsipi hamda tarix fanining siyosiy legitimatsiya vositasiga aylanish jarayonlari ilmiy jihatdan baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Sovet tarixshunosligi, mafkura, marksizm-leninizm, tarix fani, siyosiylashuv, tarixiy bilim, ideologik transformatsiya, partiyaviylik, ilmiy metodologiya.*

ПОЛИТИЗАЦИЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ В НАУЧНОЙ СРЕДЕ СОВЕТСКОЙ ЭПОХИ

Диёрбек Мақсудович Наримонов

Старший преподаватель

Кафедра истории и антропологии восточных стран

Ташкентский государственный университет востоковедения

ORCID: 0009-0003-7727-3496

Электронная почта: diyorbekmaqsudovich93@gmail.com

***Аннотация.** В данной статье анализируются процессы политизации исторической науки в советской научной среде, влияние марксистско-ленинской идеологии на историографию, а также идеологическая трансформация исторического знания. Особое внимание уделяется подчинению исторической науки интересам советской власти, ограничению научной объективности и идеологической интерпретации исторических событий. В исследовании рассматриваются методологические основы советской историографии, принцип партийности и процесс превращения исторической науки в инструмент политической легитимации.*

Ключевые слова: Советская историография, идеология, марксизм-ленинизм, историческая наука, политизация, историческое знание, идеологическая трансформация, партийность, научная методология.

THE POLITICISATION AND IDEOLOGICAL TRANSFORMATION OF THE HISTORY DISCIPLINE IN THE SCIENTIFIC ENVIRONMENT OF THE SOVIET ERA

Diyorbek Maqsudovich Narimonov

Senior Lecturer

Department of History and Anthropology of Eastern Countries

Tashkent State University of Oriental Studies

ORCID: 0009-0003-7727-3496

E-mail: diyorbekmaqsudovich93@gmail.com

***Abstract.** This article analyzes the politicization of historical science in the Soviet academic environment, the influence of Marxist-Leninist ideology on historiography, and the ideological transformation of historical knowledge. Particular attention is paid to the subordination of historical science to the interests of Soviet power, the limitation of scientific objectivity, and the ideological interpretation of historical events. The study also examines the methodological foundations of Soviet historiography, the principle of partisanship, and the transformation of historical science into a tool of political legitimation.*

***Keywords:** Soviet historiography, ideology, Marxism-Leninism, historical science, politicization, historical knowledge, ideological transformation, partisanship, scientific methodology.*

KIRISH

XX asrda shakllangan eng yirik siyosiy-mafkuraviy tizimlardan biri hisoblangan Sovet Ittifoqi jamiyat hayotining barcha yo‘nalishlariga, xususan, ilm-fan va madaniy taraqqiyot jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur davrda tarix fani davlat mafkurasini asoslash, uni omma ongiga singdirish hamda sovet siyosiy tizimining legitimligini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biriga aylandi. Natijada tarixiy bilimlar marksistik-lenincha konseptual yondashuv asosida qayta shakllantirilib, tarixshunoslik tadqiqotlari hukmron siyosiy mafkura talablariga muvofiq tarzda rivojlantirildi.

Sovet tarixshunosligida tarix fanining ustuvor vazifasi kommunistik dunyoqarashni targ‘ib qilish, sotsialistik tuzumning tarixiy zaruriyat ekanligini nazariy jihatdan asoslash hamda proletariat diktaturasi g‘oyalarini jamiyat ongiga singdirish bilan izohlandi. Shu sababli tarixiy tadqiqotlarda ilmiy xolislik va obyektivlik tamoyillaridan ko‘ra siyosiy-mafkuraviy manfaatlar yetakchi o‘rin egalladi. Buning natijasida tarixiy hodisa va jarayonlarni talqin qilishda sinfiy

yondashuv, partiyaviylik prinsipi hamda biryoqlama interpretatsiya usullari ustuvor metodologik mezonga aylandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tarix fanining sovet davri ilmiy muhitida siyosiy lashuvi va ideologik transformatsiyasi jarayonlari kompleks ilmiy usullar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sovet davri tarixshunosligi ilmiy tizimi va uning nazariy-metodologik asoslari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa tarix fanining sovet hokimiyati manfaatlariga bo‘ysundirilishi, marksistik-lenincha mafkuraning tarixiy bilimlarga ta’siri, partiyaviylik prinsipining ilmiy tadqiqotlarga qo‘llanilishi hamda tarixiy voqealarning mafkuraviy talqini jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot uslubi va xarakteri. Tadqiqot fundamental xarakterga ega bo‘lib, tarixshunoslikning nazariy-metodologik masalalariga qaratilgan deskriptiv-tahliliy tadqiqot uslubida olib borildi. Maqola tarix fanining soviyet davrida boshidan kechirgan ideologik transformatsiyasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tarixiy hodisalarning sabab-oqibat bog‘liqligini, ularning ichki mantig‘ini va rivojlanish dinamikasini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Mazkur tadqiqot sovet tarixshunosligining nazariy-metodologik asoslarini, uning ilmiy imkoniyatlari va cheklovlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, tarix fanining mafkuraviy ta’sir ostida shakllanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan baholashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tarixshunoslikning nazariy-metodologik masalalari, ilmiy bilimlarning siyosiy kontekstda shakllanishi hamda ideologiya va fan o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda qo‘llangan ilmiy usullar. Tadqiqot jarayonida tarixshunoslik sohasining nazariy-metodologik masalalarini yoritish maqsadida quyidagi ilmiy usullar qo‘llandi:

- **Tarixiy-qiyosiy usul.** Bu usul yordamida sovet davri tarixshunosligining rivojlanish bosqichlari, uning turli davrlardagi xususiyatlari hamda boshqa tarixshunoslik maktablari bilan taqqosiy tahlili amalga oshirildi. Xususan, sovet tarixshunosligining marksistik-lenincha metodologiya asosida shakllanishi va rivojlanishi tarixiy dinamika nuqtai nazaridan o‘rganildi.

- **Tahliliy-uslubiy usul.** Mazkur usul yordamida sovet davrida tarixiy tadqiqotlarda qo‘llangan metodologik yondashuvlar, interpretatsiya usullari hamda tarixiy manbalarga munosabatning xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tarixiy voqealarning marksistik-lenincha konseptual sxemalar doirasida talqini, sinfiy yondashuvning qo‘llanilishi hamda iqtisodiy determinizmning metodologik ahamiyati alohida o‘rganildi.

- **Tizimli tahlil usuli.** Bu usul yordamida tarix fanining sovet ilmiy tizimidagi o‘rni, uning davlat mafkurasi va siyosiy tizim bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, tarixshunoslik sohasining boshqa ilmiy va siyosiy institutlar bilan

o‘zaro ta’siri sistemli ravishda tahlil qilindi. Tarixiy bilimlarni shakllantirish, tarqatish va nazorat qilish mexanizmlari butun tizim sifatida o‘rganildi.

- **Epistemologik tahlil usuli.** Mazkur usul yordamida sovet tarixshunosligida bilish jarayonining xususiyatlari, tarixiy haqiqatni anglash usullari hamda marksistik-lenincha paradigmaning epistemologik funksiyasi tahlil qilindi. Muhammad Obid al-Jobiriyning epistemologik konsepsiyalari va Ali al-Vardiyning ijtimoiy taraqqiyot nazariyalari sovet tarixshunosligining epistemologik cheklovlarini baholashda nazariy asos sifatida qo‘llandi.

- **Germatsevtik usul.** Bu usul yordamida sovet davrida yaratilgan tarixiy asarlar, ilmiy monografiyalar va akademik tadqiqotlarning mazmuni, ularning mafkuraviy kontekst sharoitida shakllanishi hamda tarixiy haqiqatning talqin qilish xususiyatlari o‘rganildi. Matnlar ichki mantig‘i, yashirin mazmun va ideologik yo‘nalishlari ochib berildi.

MUHOKAMA

XX asr davomida Sovet Ittifoqida tarix fani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida emas, balki davlat mafkurasi va siyosiy tizimning muhim tarkibiy unsurlaridan biri sifatida shakllandi hamda rivojlantirildi. Ayniqsa, 1917-yilgi oktyabr inqilobidan so‘ng mamlakatdagi ilmiy-intellektual muhit tubdan qayta tashkil etilib, tarixshunoslik sohasi yangi hokimiyatning siyosiy va mafkuraviy ehtiyojlariga moslashtirildi. Natijada tarixiy bilimlar jamiyatda kommunistik dunyoqarashni qaror toptirish va sovet siyosiy tizimining legitimligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ideologik instrument sifatida talqin etildi. Tarixiy jarayonlarni o‘rganish va izohlash marksizm-leninizm metodologiyasi asosida qat’iy tartibga solinib, bu holat tarix fanida ilmiy xolislik, metodologik plyuralizm hamda manbalarga erkin yondashuv imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi.

Marksistik-lenincha nazariyaga ko‘ra, tarixiy taraqqiyotning asosiy determinantlari iqtisodiy munosabatlar va sinfiy kurash jarayonlari bilan belgilanadi. Shu bois jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi tamoyili asosida izohlandi [3]. Sovet tarixshunosligida tarixiy voqelikni tahlil qilishda “ishlab chiqarish usuli”, “sinfiy manfaatlar”, “inqilobiy harakat”, “ijtimoiy formatsiya” kabi kategoriyalar metodologik asos sifatida ustuvor mavqega ega bo‘ldi. Mazkur yondashuv Sharq xalqlari, xususan arab mamlakatlari tarixini o‘rganishda ham universal ilmiy paradigma sifatida qo‘llanilib, mintaqadagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar sinfiy kurash hamda mustamlakachilikka qarshi harakatlar kontekstida talqin qilindi.

Sovet ilmiy tizimida tarixiy bilim ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlaridan biri partiyaviylik prinsipining mutlaq ustuvorligida namoyon bo‘ldi. Tarixchi olimlarning ilmiy qarashlari va xulosalari Kommunistik partiyaning rasmiy siyosiy qarorlari, mafkuraviy konsepsiyalari hamda strategik yo‘nalishlariga mos bo‘lishi talab etildi. Tarixiy voqea-hodisalarni rasmiy mafkuradan tashqarida talqin qilish holatlari “burjua tarixshunosligi”, “ideologik og‘ish” yoki “ilmiy xatolik” sifatida baholanib, keskin tanqid ostiga olindi [1]. Bu

esa tarix fanining erkin rivojlanishiga jiddiy to’siq bo’lib, ilmiy tadqiqotlarda siyosiy senzura va mafkuraviy nazoratning kuchayishiga olib keldi.

Sharq mamlakatlari tarixi bilan bog’liq tadqiqotlarda tarix fanining mafkuraviy funksiyasi ayniqsa yaqqol namoyon bo’ldi. Sovet tashqi siyosatida arab mamlakatlari va boshqa Sharq davlatlari antiimperialistik kurash hududi sifatida ko’rilgani sababli, ularning tarixini yoritishda ham aynan shu konseptual yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Arab davlatlaridagi siyosiy jarayonlar, milliy-ozodlik harakatlari va ijtimoiy transformatsiyalar ko’pincha imperializmga qarshi kurash hamda sotsialistik taraqqiyot istiqbollari nuqtai nazaridan talqin qilindi. Natijada tarixiy voqeliklarning murakkab va ko’p qirrali jihatlari ko’pincha mafkuraviy interpretatsiyalar doirasida cheklanib qoldi.

Sovet tarixshunosligida tarixiy bilimlarni shakllantirish jarayoni markazlashgan ilmiy siyosat asosida amalga oshirildi. Moskva va Leningrad kabi yirik ilmiy markazlar tarix fanining nazariy-metodologik yo’nalishlarini belgilovchi asosiy markazlar sifatida faoliyat yuritdi [2]. Ittifoqdosh respublikalardagi ilmiy tadqiqotlar esa ko’p hollarda ushbu markazlarda ishlab chiqilgan konsepsiyalarning hududiy talqini shaklida rivojlantirildi. O’zbekistonda tarix fanining taraqqiyoti ham markaziy sovet tarixshunosligi maktablarining kuchli ta’siri ostida kechdi. Bu esa mahalliy tadqiqotchilarning mustaqil metodologik qarashlarni ilgari surish imkoniyatlarini cheklab, tarixiy tadqiqotlarning umumittifoq mafkuraviy yo’nalish doirasida olib borilishiga sabab bo’ldi.

Sovet davrida tarixiy bilimlarni shakllantirish va ommalashtirish jarayonida senzura mexanizmi muhim nazorat vositalaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Ilmiy monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar hamda boshqa akademik tadqiqotlar nashrga tavsiya etilishidan avval qat’iy mafkuraviy ekspertizadan o’tkazilar edi. Kommunistik partiyaning rasmiy siyosiy yo’nalishlariga zid yoki marksistik-lenincha metodologiyaga mos kelmaydigan qarashlar tahrir qilinardi, ayrim hollarda esa mutlaqo rad etilardi. Natijada tarixiy tadqiqotlar ustidan kuchli ideologik nazorat o’rnatilib, ilmiy fikr erkinligi sezilarli darajada cheklab qo’yildi.

Mazkur senzura tizimi tarix fanining tabiiy va erkin rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Ayrim tarixiy mavzularning tadqiq etilishi taqiqlanib, ba’zi voqea-hodisalar faqat rasmiy mafkura talablariga mos ravishda biryoqlama talqin qilindi. Ayniqsa, sovet hokimiyatining repressiv siyosati, milliy mustaqillik harakatlari, diniy qadriyatlar hamda totalitar boshqaruv tizimining salbiy jihatlari bilan bog’liq masalalar ilmiy muomaladan chetlashtirildi. Bu esa tarixiy voqelikni xolis va kompleks o’rganish imkoniyatlarini cheklab, tarixshunoslikda selektiv yondashuv hamda mafkuraviy interpretatsiyaning ustuvorlashuviga olib keldi.

Shu tariqa, sovet ilmiy tizimida tarixiy bilimlarning shakllanishi mafkuraviy tamoyillar bilan uzviy bog’liq holda rivojlandi va bu holat arab davlatlari tarixini tadqiq etishda qo’llanilgan metodologik yondashuvlar, tarixiy manbalarga munosabat hamda ilmiy xulosalarning umumiy xarakteriga bevosita ta’sir ko’rsatdi. Natijada sovet davri arabshunosligi nafaqat tarixiy tadqiqot obyekti,

balki mafkuraviy ta’sir ostida shakllangan tarixshunoslik maktabi sifatida ham alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Mazkur jarayonni o’rganish sovet tarixshunosligining nazariy-metodologik asoslarini, uning ilmiy imkoniyatlari va cheklovlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sovet tarixshunosligida mafkura faqat tashqi senzura yoki siyosiy nazorat shaklida emas, balki ilmiy tafakkurning ichki epistemologik elementi sifatida ham namoyon bo’ldi. Marksistik-lenincha metodologiyaning tarixiy voqelikni tushuntirishdagi yagona “ilmiy” paradigma sifatida e’tirof etilishi tarixchi tafakkurining shakllanishiga chuqur singdirildi [1]. Natijada tarixiy hodisalarni tahlil qilish jarayonida empirik manbalardan kelib chiqishdan ko’ra, mavjud voqelikni oldindan belgilangan nazariy konstruksiyalarga moslashtirish tendensiyasi kuchaydi. Bu esa tarixiy tadqiqotlarda konseptual biryoqlamalik va metodologik qat’iylilikning ustuvor bo’lishiga olib keldi.

Mazkur masalani epistemologik nuqtai nazardan sharhlagan Muhammad Obid al-Jobiriy bilish jarayonida shakllanadigan aqliy konstruksiyalar va epistemologik modellar insonning voqelikni anglash usullariga sezilarli ta’sir ko’rsatishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, tafakkur tizimida ustuvor mavqega ega bo’lgan nazariy qoliplar ko’pincha voqelikni xolis idrok etish imkoniyatlarini cheklaydi hamda tayyor konseptual sxemalarning hukmronligiga olib keladi. Ushbu yondashuv sovet tarixshunosligida marksistik-lenincha paradigmaning mutlaq metodologik mezon sifatida qaror topganligini izohlashda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Natijada tarixiy bilimlar shakllanishida deterministik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Tarixiy jarayonlar asosan iqtisodiy bazis va sinfiy munosabatlar orqali izohlanib, siyosiy, madaniy, diniy va sivilizatsion omillar ikkilamchi “ustqurma” sifatida talqin qilindi [4]. Ayniqsa, arab davlatlari tarixini o’rganishda bunday metodologik yondashuv muayyan ilmiy cheklovlarni yuzaga keltirdi. Chunki arab jamiyatlari taraqqiyoti ko’plab hollarda diniy qadriyatlar, qabilaviy tuzilma, mahalliy an’analar, etnomadaniy omillar va mintaqaviy siyosiy munosabatlar bilan chambarchas bog’liq holda shakllangan edi. Ushbu murakkab ijtimoiy tuzilmani faqat iqtisodiy va sinfiy munosabatlar orqali izohlash tarixiy voqelikning ko’p qatlamli mohiyatini to’liq ochib bera olmadi.

Arab jamiyatlari ijtimoiy taraqqiyotini tadqiq etgan Ali al-Vardiy ham tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda ko’pqirrali ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga olish zarurligini alohida qayd etadi. Olimning ta’kidlashicha, Sharq jamiyatlarini faqat universal nazariy qoliplar asosida tushuntirish ularning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini soddalashtirishga olib keladi. Shu sababli arab dunyosi tarixini o’rganishda mahalliy mentalitet, diniy tafakkur, madaniy an’analar va mintaqaviy o’ziga xosliklarni kompleks tarzda tahlil qilish muhim metodologik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mafkuraviy yondashuvning tarixiy bilimlar shakllanishiga ta’siri, avvalo, tadqiqot mavzularini tanlash va ilmiy ustuvorliklarni belgilash jarayonida yaqqol namoyon bo’ldi. Sovet davri tarixshunosligida arab davlatlari tarixiga oid ayrim yo’nalishlar mafkuraviy nuqtai nazardan ikkinchi darajali yoki “reaksion” hodisalar sifatida baholanib, cheklangan tarzda tadqiq etildi. Xususan, diniy institutlar, islom huquqi, sulolaviy boshqaruv an’analari, mahalliy madaniy evolyutsiya hamda diniy-ma’naviy tafakkur bilan bog’liq masalalar ko’pincha biryoqlama talqin qilindi yoki ilmiy muomaladan nisbatan chetda qoldirildi. Bunday yondashuv sovet tarixshunosligining sekulyar va sinfiy metodologik paradigmasi bilan izohlanadi.

Aksincha, imperializmga qarshi kurash, milliy-ozodlik harakatlari, mustamlakachilikka qarshi siyosiy jarayonlar hamda sotsialistik taraqqiyot g’oyalari yaqin bo’lgan mavzular tarixiy tadqiqotlarning ustuvor yo’nalishlari sifatida faol qo’llab-quvvatlandi. Arab mamlakatlaridagi siyosiy transformatsiyalar ko’pincha antiimperialistik kurash va “progressiv kuchlar” faoliyati doirasida talqin qilinib, sovet tashqi siyosatining mafkuraviy konsepsiyalari bilan uyg’unlashtirildi. Natijada tarixiy voqelikning murakkab va ko’p qatlamli tabiati ma’lum darajada soddalashtirildi hamda tarixiy jarayonlarga nisbatan selektiv yondashuv shakllandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sovet davri ilmiy muhitida tarix fani mustaqil akademik soha sifatida emas, balki davlat mafkurasining muhim tarkibiy elementi sifatida shakllantirildi. Marksistik-lenincha metodologiya tarixiy bilim ishlab chiqarishning asosiy nazariy mezoniga aylantirilib, tarixiy voqelikni talqin qilish jarayonlari kommunistik mafkura manfaatlariga bo’ysundirildi.

Sovet ilm-fanida shakllangan deterministik yondashuv tarixiy jarayonlarni asosan iqtisodiy bazis va sinfiy munosabatlar orqali izohlashga olib keldi. Bu esa siyosiy, diniy, madaniy va sivilizatsion omillarning tarixiy taraqqiyotdagi o’rnini ikkinchi darajali hodisa sifatida talqin qilishga sabab bo’ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алимova Д. А., Илхамов З. А. Тарих фани методологияси. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2018.
2. Барг М. А. Категории и методы исторической науки. – Москва: Наука, 1984.
3. Ковальченко И. Д. Методы исторического исследования. – М.: Наука, 1987.
4. Маркс К. К критике политической экономии. – Москва: Политиздат, 1970.

5. Дониёров, А. (2003). Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Автореф. дисс.... докт. ист. наук.
6. Doniyorov, A., & Karimov, N. R. (2024). *Uzbekistan's Journey: Transition from Soviet Republic to Independent Nation*.
7. Ochilova K., Doniyorov A., and et.al. Integrating environmental sustainability into educational innovation for eco-literate and climate-resilient learning systems // *Acta Innovations*. 2025. P. 22–30.
8. Alisher Doniyorov et al. (2025). Design and Optimization of Antenna Systems for Campus Wi-Fi Infrastructure: A Study for Educational Environments. *National Journal of Antennas and Propagation*, 7(1), 77-82.
9. Alisher Doniyorov et al. (2025). Integrating Advanced Antenna Technologies into Educational Environments for Enhanced Data Transfer and Communication. *National Journal of Antennas and Propagation*, 7(1), 70-76.
10. Алишер Дониёров. (2025). Қўйи Зарафшон водийси моддий маданияти тарихини ўрганиш: илмий тадқиқотлар ва ёндашувлар. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali, 3, 356–370.
11. Abdurasulov, S., & Doniyorov, A. (2025). Markaziy Osiyo tasavvuf tarixining nemis olimi Yurgen Paul tomonidan tadqiqi: Naqshbandiyya misolida. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali, 3, 307–321.
12. Doniyorov, A., Khaydarov, I., Alimova, R., Asadova, S., Askarov, M., & Odilov, B. A. (2023). Historical roots of interethnic harmony and tolerance in Uzbekistan. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2535-e2535.
13. Doniyorov, A. (2018). On general methodological, ethnopolitical, and ethnocultural aspects of “Diaspora issues” (To the theoretical formulation of the problem and the ways of its practical solution). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 8(11), 68-74.
14. Doniyorov, A., & Karimov, N. (2020). An incomparable book by a great scholar. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (8), 63-71.
15. Doniyorov, A. K., & Abirov, V. E. (2022). Theoretical Conceptual Views on The Emergence of the Nation in World Historiography. *Current Research Journal of History* (ISSN –2767-472X) Volume 03 Issue 10 – P 1-7.